

## YURTIMIZ TEATRLARI

### *Kamolova Fotima Sayfidin qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi talabasi*

### *To'ymurodova Dinora Otabek qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi talabasi*

### *Rajabova Noila Murodjon qizi*

*Kutubxona axborot faoliyati Ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikada joylashgan teatrlar, ularning tashkil etilgan vaqtlari, tashkil etilgandan buyon olib borayotgan faoliyatlari, ularga davlat miqyosida berilayotgan e'tibor va chiqarilgan qonunlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlari:** Teatr, Farg'ona teatri, Andijon teatri, Namangan teatri, Buxoro teatri, Samarqand teatri, Qashqadaryo teatri, Surxondaryo teatri, Sirdaryo teatri, Jizzax teatri, Xorazm teatri, O'zbek milliy akademik drama teatri

Teatr so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "tomoshaxona", "tomoshagoh" degan ma'noni anglatadi. Bu san'at turi aktyorning omma oldidagi o'yini njarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeidir. Teatrda ham xuddi boshqa san'atlarda bo'lganidek xalqimizning hayoti, tarixi, dunyoqarashlari, aks etadi, jamiyatimizning taraqqiyoti, ma'naviyat va madaniyati bilan bo'lgan holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr qadim zamonlardan ya'ni bundan 2500yil avval muqaddam paydo bo'lgan. Teatrda sahna ko'rinishlarini ya'nirolarni erkaklar ijro etishgan. Serquyosh O'zbekiston hududimizda teatr juda qadim va boy tarixga egadir. Uning vujudga kelishi ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayonida aks etgan raqslar, jangovar va xalq o'yinlari tabiat kuchlariga

sig'inishlari avvalgi VII-VI asrlarda Turon zaminida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" bilan bo'g'liq ikki toifa shakllangan. Buyuk bobomiz Amir Temurning hukmronligi davrida teatr san'atida yuksalish ro'y berdi. XVII asr oxiri XIX asr boshlarida teatrning asosiy turlari saqlanib repertuar va ijro uslubida o'ziga xos xususiyatlar rivojlangan. Keyinchalik yurtimiz viloyatlarida keng tarqalgan. Hozirda yurtimizda deyarli barcha viloyatlarida teatrlar o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

### **Farg'ona teatri**

Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri – O'zbekistonimizning ko'hna teatrlaridan biri bo'lib, u 1930-yilda tashkil topgan Farg'ona teatrining tashkilotchilari Mamadali Haydarov, Soli Ahmedovlardir. Keyinchalik oradan 3 yil o'tib, ya'ni 1993-yil Marg'ilon teatr truppasi ham Farg'ona teatriga birlashtirildi. Muhammad Tojizoda teatr bosh rejissori etib tayinlandi. Farg'ona teatrida ilk bor "Tohir va Zuhra" spektakli musiqali drama rivojida muhim juda ham kata ahamiyatga ega bo'ldi. Urush yillarida teatr Shevchenko nomidagi Ukraina va Moskva Lenin komsamoli teatrlari bilan bir binoda ijod qilishgan. Ular bilan hamkorlikda "Nodira", "Besh so'mlik kelin" kabi musiqali asarlar sahnalashtirilgan. Urushdan keyin bir necha asarlar sahnalashirildi. 1966-yilda ilk bor qo'yilgan "Gul va Navro'z" asaridan qo'yilgan spektakl musiqali drama yo'naishida keskin ko'tarilish boshladi. **ISTIQLOL DAVRIDA** "Amir Temur va To'xtamishxon" (T. Mirzo), Al Farg'oniya qaratilgan "Osmonga sig'magan muhabbat" (Y. Sulaymon), "Parijga sayohat" (Molyer), "Kampir topaymi dadajon" (A. Xursandov), "Baxt o'g'risi" (I. Tursunov) eng yaxshi spektakllaridir.

### **Andijon teatri**

Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatri to'ng'ich o'zbek professional teatrlardan. Bu teatr 1919-yil noyabr – dekabr oylarida Niyoziy boshchiligida "Yagona truppa" nomi ostida rasman ish

boshlagan. 1924-yil teatr “Umid” truppasi nomi ostida Andijon maorif bo’limi ixtiyoriga olingan. Dastlabki asosini hajmi uncha kata bo’lmagan asarlar tashkil topgan. Necha yillardan so’ng 1927-yilda esa teatr Andijon shahri davit truppasi nomi bilan qayta tuziladi. 1931-yilda esa teatrga Yo’ldosh Oxunboboyev nomidagi ikkinchi o’zbek davlat drama teatri nomi berilgan. 1940-yil V. Azimov “Tohir va Zuhra” spektaklini qo’ydi va spektakl teatr hayotida yangi bosqichga yuz tutdi. Keyinchalik Shekspirning “Romeo va Juletta” taragediyasining bu teatrdagi qo’yilishi, teatrning ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini yaqqol namoyon etib berdi. “Qirol Lir”, “Richard III”(Shekspir), “Mehrobdan chayon”(A. Qodiriy), “Suv keltirgan aziz”(N. Safarov), “Ona qizim” (Shuhrat), “Bobur” (Z. Muhiddinov), “Boy ila xizmatchi” (Hamza), kabi spektakllar eng yaxshi ijod mahsullari hisoblangan.

### **Namangan teatri**

A. Navoiy nomidagi musiqali drama teatri- dastlabki teatrlardan biridir. 1931-yil 15-iyunda teatr A. Sultonovning “Intilish” spektakli ochilgan. Teatrning ilk bor gastrolini 1936-yili Toshkent bshahrida bo’lgan va teatr ijodkorlari qo’ygan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Rustam”, “Arshin mol olon” kabi spektakllar Toshkentliklar tomonidan ijobiy kutib olingan. 1963-yilda teatr musiqali drama va komediya teatriga aylantirildi va teatrning repertuarlarini oshirish maqsadida “Toshbolta oshiq”(H. G’ulom, M. Leviyev), “Gulsara”, Nurxon”(K. Yashin, T. Jalilov), “Alpomish”, “Tohir va Zuhra”(S. Abdulla), “Layli va Majnun”(Sh. Xurshid) kabi spektakllar teatr repertuaridan joy olgan. Mustaqillik yillaridagi vatan ruhida qo’yilgan “Mashrab”(A. Tursun), “Yor istab”(H. Sharipov), “Kahmir qo’shig’i”, “Alpomishningo’q yoyi”(A. Jabbor), “Usmon Nosir qayerda”(A. Azamov), “Qirol Lirning nabiralari”(U. Shekspir, A. Pushkin, M. Bulgakov) kabi spektakllar teatrning so’nggi yillaridagi ijod namunalari.

### **Buxoro teatri**

Sadriddin Ayniy nomidagi davlat musiqali drama v komediya teatri- ilk o'zbek professional teatrlaridan biridir. Teatr F. Xo'jayev tomonidan havaskorlik guruh asosida shakllandi va 1922-yili Hamzaning "Tuhmatchilar jazosi" spektakli bilan ochilgan. Keyinchalik 1924-yil teatrning bir guruh aktyorlari Moskvadagi o'zbek drama studiyasiga o'qishga yuboriladi. Drama studiyasini tugatgan aktyorlar qaytganidan so'ng teatr professional teatr maqomiga ega bo'ldi. Ular

D. Furmonov va S. Polivanovning "Isyon", "J. Molerning "Zo'raki tabib", L. Sayfullinaning "Qon va suv" spektakllari teatrning professionallik darajasini yana orttirdi. Teatr 1936-yil "Musiqali drama teatri"ga aylantirildi. 1958-yilda esa Sadriddin Ayniy nomi berildi teatrga.

### **Samarqand teatri**

O'zbekistondagi ko'hna teatrlaridan birihisoblangan Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o'zbek davlat musiqali dram teatri 1914-yil 15-yanvarda M. Behbudiyning "Padarkush" asari nomi ostidagi spektakl bilan ochilgan. 1930-yil poytaxt teatri maqomida ishlayotgan O'zbek davlat truppasiga poytaxt Toshkentga ko'chirilishi munosabati bilan "Musulmon o'g'itruppasi" va "Ko'k ko'yalak" havaskor teatr to'dasi asosida Samarqand viloyati o'zbek davlat musiqali drama teatri tashkil topdi va o'z faoliyatini S. Abdullaning "Bog'bon qizi" spektakli bilan boshladi. Mustaqillik yillarida "Imom Buxoriy", "Qitmir", "Samarqandnoma", "Ipak yo'li" spektakllar namoyish etilgan.

### **Qashqadaryo teatri**

Mulla To'ychin Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri O'zbekistondagi professional teatrlardan biridir. Qarshi tuman maorif mudiri A. Shabzoda va sozanda A. Qodirovlar tomonidan 1932-yil 2-avgustda tashkil topgan. 1936-yilda teatr maqomi, 1943-yilda esa mashhur xonanda To'ychi Hofiz Toshmuhammedov nomi berildi. Teatrda Sh. Boshbekovning "Tikansiz

tipratikan”, M. Xalilning “Sehrli uzuk” nomli asarlarga spektakllar tomoshabinlarga taqdim etildi.

### **Surxondaryo teatri**

O‘zbekistonning yetakchi teatrlaridan biri bo‘lgan Mannon Uyg‘ur nomidagi Surxondaryo viloyat o‘zbek davlat musiqali drama teatri. Termiz shahrida

1935-yil 5-noyabrda Afandixon Ismoilovning “G‘olibiyat” spektakli bilan ochilgan. 1936-yili Jarqo‘rg‘on teatri Surxondaryo teatriga birlashtirildi. Teatrning repertuarini yaxshilash maqsadida teatrga 1942-yili Denov teatri qo‘shildi. Teatr qisqa vaqt ichida o‘z repertuarlarini “Birinchi muhabbat”, “Xavfli uchrashuv”, “Boy ila xizmatchi”, “Oltin bolta” va boshqa ko‘plab spektakllar qo‘yildi. 1978-yil Mannon Uyg‘ur nomi berildi.

### **Sirdaryo teatri**

1974-yilda Olim Xo‘jayev nomidagi Sirdaryo teatri tashkil topdi. Ilk spektakli A. Qahhorning “Muhabbat” asariga sahanalashtirildi. 1977-yilda Olim Xo‘jayev nomi berildi. 1984-yilda yangi binoga qadam ranjida ayladi. Teatrning binosi 730 o‘rinli va zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlangan. “Qirol Lir”, “Richard III”, “Soxta oqsuyak”, “Corbog‘dagi hangomalar”

### **Jizzax teatri**

Tarixiy kelib chiqishi 1921-yilga to‘g‘ri keladigan teart bu Yunus rajabiy nomidagi Jizzax teatri. Dastlabki vaqtda 1927-yil “Ko‘k ko‘ylak” agitteatri nomi berildi. P.Nosirovning “Halima” nomli asari ilk bor sahnalashtirildi. “Ko‘k ko‘ylak” agitteatri 1932-yil Samarqand kolxoz-sovxozi teatriga aylantirildi. 1957-yilda esa kolxoz-sovxozi teatrlarining birlashishi munosabati bilan Jizzax kolxoz-sovxozi teatri gruppasi a‘zolari Samarqand va Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrlari ixtiyoriga o‘tkazildi. Teatr 1960-yilda “Xalq teatri” unvoniga sazovor bo‘ldi. 1988-yilda Yunus rajabiy nomi berildi. Teatrning repertuarlaridan “Oltin devor”, “Xolisxon”, “Aslzodakelin”, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Qoraqum fojiasi” nomli spektakllar sahnalashtirilgan.

### **Xorazm teatri**

O'zbekistonning ko'hna teatrlaridan biri hisoblangan Xorazm teatri. 1922-yilda Hamza boshchiligida "Hukumat uyi" nomi bilan tashkil etdi. Hamza o'zining noyob, topilmas asarlari ya'ni "Tuhmatchilar jazosi", "Zaharli hayot", "Farg'ona fojialari", "Qarmoq" kabi asarlarini sahnalashtirdi. 1933-yilda teatr Urganchga ko'chirildi va musiqali drama teatr nomini oldi.

### **O'zbek milliy akademik drama teatri**

Eng keksa va yirik teatri deb nom olgan O'zbek milliy akademik drama teatri 1913-yilda Toshkentda tashkil topadi va 1914-yilda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarining spektakli bilan ochilgan. 1929-yilda teatrga "Hamza" nomi, 1933-yilda esa "Akademik drama teatri maqomi berildi. "Mariya Styuart", "O'limdan kuchli", "Oy tutilgan tunda", "G'ariblar" nomli spektakllar teatrning tarixida muhim bir o'rin egallaydi.

Respublikamizning birgina Navoiy viloyatida teatr mavjud emas. Hozirda rivojlanib yuksalib kelayotgan bu yosh viloyatimizda ham albatta teatr qad rostlaydi. Yurtimizda teartlarga bo'lgan qiziqish, ishtoyoq, e'tibor mana necha yillardir kim oshsa oshdiki, ammo kamaygan emas, albatta, bundan keyin ham bir biridan ko'ra ibratli, xalqning doimo nazarida bo'ladi. Mahmudxo'ja Behbudiy bobomiz aytganlaridek "Teatr- bu ibratxonadir". Unga kirgan har bir inson o'ziga kerakli bo'lgan xulosani olib ketishi kerak va olib ketadi ham!

### **Foydalanilgan adabiyotl**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. [www.milliyteatr.uz](http://www.milliyteatr.uz)